

## TA'LIM JARAYONIDA TEST TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH MASALASI (“O’ZBEK DIALEKTOLOGIYASI” FANI MISOLIDA)

*Dilhayot Sotiboldiyev*  
*Qo‘qon davlat pedagogika instituti*  
*O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi*  
[dilhayotsotiboldiyev5@gmail.com](mailto:dilhayotsotiboldiyev5@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’lim jarayonida, xususan, “O’zbek dialektologiyasi” fani doirasida test topshiriqlaridan qanday foydalanish to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan va misollar orqali izohlangan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim tizimi, test, novatsiya, innovatsiya, reproduktiv daraja, produktiv daraja, qisman-izlanishli daraja, ijodiy(kreativ) daraja.

Ta’lim tizimida yoki o‘quv faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llashda sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko‘zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’limda ham “novatsiya”, “innovatsiya” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Ta’lim oluvchilarining o‘quv rejadan o‘rin olgan kurslar bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash va baholashda nazorat turlaridan biri test topshiriqlari sanaladi. Test topshiriqlari didaktik materiallar sirasiga mansub bo‘lib, u quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- Test topshiriqlarining ta’limiy funksiyasi.
- Test topshiriqlarining tarbiyaviy funksiyasi.
- Test topshiriqlarining rivojlantiruvchi funksiyasi.

Yuqoridagilarni e’tiborga olgan holda, test topshiriqlari didaktik material sifatida quyidagi talablarga javob berishi lozim:

Har bir test topshirig‘i tegishli ta’lim turi bo‘yicha o‘quv rejadan o‘rin olgan o‘quv kurslari bo‘yicha DTS va o‘quv dasturi asosida tuzilishi shart. Integrativ testlar ham o‘zaro uzviy bog‘langan aloqador fanlar DTS va o‘quv dasturi mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilishi maqsadga muvofiq.

Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi mezoni o‘rganilayotgan obektning xususiyatlarini o‘zida to‘liq aks ettirib, u tahsil oluvchilar tomonidan mazkur xususiyatlarni aniqlash uchun bajaradigan aqliy operatsiyalariga ko‘ra:

**1. Reproduktiv daraja** (yodda saqlangan bilim, ko‘nikma va malakalarini tanish odatiy vaziyatda axborotlarni qayta ishlamasdan javob qaytarishni talab etadi. Bu darajada

tuzilgan testlar tahsil oluvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni aniq baholash imkonini bermaydi);

2. **Produktiv daraja** (o‘rganilgan ob’ektlarni qiyoslash, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, umumiy xulosa chiqarish orqali javob berishni talab etadi);
3. **Qisman-izlanishli daraja** (o‘rganilgan ob’ektlarning xususiyatlarini boshqa ob’ektga ko‘chirish, mazkur ob’ektlarni taqqoslab, keyingi ob’ektning o‘ziga xos xususiyatlari haqida xulosa chiqarish, qisman izlanish olib borishni talab etadi. Talabalar tomonidan mazkur darajadagi test topshiriqlariga javob berishda avval o‘zlashtirilgan bilimlar yangi vaziyatlarga ko‘chiriladi);
4. **Ijodiy (kreativ) daraja** (ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, mazkur test topshiriqlarini bajarish jarayonida talabalar tomonidan avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llashni talab etadi).

Reproduktiv darajadagi test:

1. O‘zbek dialektologiyasi rivojiga katta hissa qo‘shgan quyidagi olim kim?

	1. Dialektolog olim. 2. O‘zbek shevalarini uch guruhda tasniflagan. 3. Milliy transkripsiya asoschisi. 4. Asarlarida qorluq-chigil-uyg‘ur va qipchoq lahjalari taraqqiyotiga doir original fikrlar olg‘a surgan.	A.K.Borovkov V.V.Reshetov Y.D.Polivanov K.K.Yudaxin
--	---	--

Rproduktiv darajadagi test:

2. Shevalardagi egalik va ko‘plik kategoriyasiga oid mazkur chizma qaysi tilshunos olimga tegishli?

	Sh.Shoabdurahmonov Sh.Nosirov A.Ishayev F.Abdullayev
---	---

Qisman izlanishli test:

3. Shevalarda o‘rni almashinib qo‘llanillauvchi kelishiklarni toping.

1.	Samarqand, Buxoro	A	Qaratqish-tushum kelishigi
2.	Toshkent, Farg‘ona	B	Jo‘nalish -o‘rin-payt kelishigi

3.	Qarshi, Shahrisabz	C	Qaratqich-tushum, jo‘nalish-o‘rin-payt
	1-	2-	3-

4. Quyida berilgan fikrlarning qaysilari to‘g‘ri?

- A. Hojiyev Andijon shevasi bo‘yicha doktorlik ishini qilgan..
  - B. Sheva materiallari xalq jonli tilidan yozib olinadi.
  - C. O‘zbek shevalarida kelishik shakllari ko‘p variantlidir.
  - D. F.Abdullayev Xorazm shevalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borgan.
  - E. Farg‘ona-Toshkent shevalarida jo‘nalish-o‘rin-payt kelishigi bir-birini o‘rnida qo‘llanib keladi.
  - F. V.V.Reshetov adabiyotshunoslik sohasida ham ilmiy ishlar olib borgan.
- Javob kataklarga “+” yoki “-”, “ha”, “yo‘q” shaklida qo‘yiladi

A	B	C	D	E	F

Ijodiy darajadagi test:

5. O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek tilshunoslaria sohasida alohida faoliyat olib borgan olimlarga mos raqamlarni jadvalning o‘ng tarafiga yozing.

- 1) A.G‘ulomov 2) Sh.Nosirov 3) A.Nurmonov 4) V.V.Reshetov
- 5) A.Hojiyev 6) H.Ne’matov 7) N.Rajabov 8) F.Abdullayev

Yo‘nalishlar	Javob raqamlari
O‘zbek dialektologiyasi	
O‘zbek tilshunosligi	
Har ikki yo‘nalishda	

Xulosa qilib aytganda, mashg‘ulot davomida turli darajadagi testlardan foydalanilganda talaba fikrlaydi, izlanadi, ma’lumotlarni qiyoslaydi, mustaqil mushohada yuritishga harakat qiladi.